
NOMZODLIKKA ISHONCH BILDIRILDI

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori sud-huquq sohida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasida ham bu sohadagi vazifalar belgilangan bo'lib jumladan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kengaytirish, ularning odil sudlovga ishonchini oshirish, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini yaxshilash, nomzodlarni tanlash vasudyalik lavozimiga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha yo'nalishlar ko'rsatib berilgandir.

Prezidentimizning joriy yil 13 iyunda soha xodimlari bilan o'tkazgan uchrashuvida sud-huquq tizimida islohotlarni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan sudyalari oldiga belgilangan vazifalarning ijrosi bo'yicha endilikda yangi institut –sudyalik lavozimiga ilk bor tayinlanayotgan nomzodlarni viloyat, tuman va shaharlar negizida jamoatchilikka tavsiya etilib ularning roziligini olish tartibi yo'lga qo'yilmoqda.

Yaqinda tuman hokimligining majlislar zalida bo'lib o'tgan tuman Kengashi deputatlari, faollar, korxonalar, vatanparvarlar, kasb-hunar kollejlari rahbarlari ishtirokidagi yig'ilishda bu fikr yana bir bor e'tirof etildi. Yig'ilishda so'z olgan O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi a'zosi Sarvarjon Soliev yurtimizda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ijrosi va ahamiyati to'g'risida yig'ilganlarga batafsil ma'lumot berarkan tuman ma'muriy sudining raisi lavozimiga nomzod etib ko'rsatilayotgan Akramov Abrorxon Agzamovichning tarjimai holi hamda ish faoliyati bilan yaqindan tanishtirib o'tdi.

Shundan so'ng tuman ma'muriy sudining raisi lavozimiga nomzod A. Akramov bildirilgan ishonch uchun yig'ilganlarga minnatdorchilik bildirdi. O'zbekiston XDP tuman Kengashi raisi, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati T. Soliev yig'ilish qatnashchilari nomidan nomzodga kelgusidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.

Yig'ilish qatnashchilari nomzodni tuman ma'muriy sudining raisi lavozimiga tayinlanishi uchun rozilik bildirdilar.

Yig'ilishda viloyat ma'muriy sudining raisi M. Marahimov, tuman hokimi H. Umarovlar ishtirok etdilar.

2017-12-04 15:18:55